



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2020,
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Alisher UMAROV
Nargiza RAXMANQULOVA
Xolboy IBRAGIMOV
Shavkat QURBONOV
Roxatoy SAFAROVA
Islom ZOKIROV
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA

Тахририят

манзили:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru

liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 *O.X.Xamidov*
Oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari integratsiyaning asosiy tendensiyalari va muammolari
- 9 *O.R.To'xsanov*
Uzluksiz ta'lim tizimida sharq mutafakkirlarining «ilm olmoq» ta'limoti mohiyati
- 13 *G.O.Hasanova*
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innofatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi
- 17 *M.M.Nigmatova*
Mashg'ulotlardan zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish
- 21 *G.Kamilova, G.Kurbonova*
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv
- 25 *Z.B.Jalilov, N.H.Azimova, S.Rahmonova*
Ta'lim muassasalarida estetik tarbiyani amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlar
- 29 *S.S.Avezov*
O'qituvchi nutq madaniyati kompetentligi
- 33 *G.U.Umarova*
Bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivoshlantirishda matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarning ahamiyati
- 38 *D.Sh.Mirzayeva*
Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori
- 42 *D.Sh.Eshova, N.N.Hamroyeva*
Bolalar nutqini o'stirishda o'yinlar va sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati
- 46 *M.Y.Ro'ziyeva, Ch.T.Xemrayeva*
Ta'limda xalq ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati va ularni o'rgatishning innovatsion usullari

MA'NAVIY TARBIYA

- 50 *G.Sh.Rahmonova*
Shaxs kamolotida bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-axloqiy va pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish
- 55 *M.B.Sharipova*
O'qituvchi-yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana marosimlarning ahamiyati
- 59 *G.B.Ergasheva*
Личностное отношение условий учебной и профессиональной деятельности учителя
- 64 *C.D.Huязова*
Роль игры в экологическом образовании дошкольников
- 69 *J.G.Paculoва*
Формирование элементарных математических представлений у дошкольников через дидактические игры
- 74 *Sh.Sh.Nizomova*
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovus tizimini shakllantirish
- 78 *I.X.Rajabova*
Особенности организации и проведения дидактических игр с детьми старшего дошкольного возраста
- 84 *H.A.Xamraeva*
Методы использования инновационных технологий на уроках русского языка и литературы
- 90 *N.S.Turdiyeva, Z.M.Ashurova*
O'z-o'zini tarbiyalash borasidagi ajdodlarimiz qarashlari

KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 94 *G.D.Huязова, H.Ikramova*
Роль методической службы в развитии профессиональной компетентности педагога ДОО
- 99 *L.T.Ochilova, L.Ch.Rajabova*
Математика mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati
- 103 *F.F.Nurullayev, N.A.Ukramova*
Oilada sog'lom, man'aviy-axloqiy muhit
- 107 *Sh.H.Qulieva, A.A.To'raev, F.Sh.Avezova*
Tizimni yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish



BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA O‘YINLAR VA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING AHAMIYATI

**D.SH.ESHOVA,
N.N.HAMROYEVA,
BuxDU o‘qituvchilari**

Nutq inson hayotida muloqot vositasi sifatida asosiy o‘rinda turadi. Muloqot jarayoni insonning barcha erishadigan muvaffaqiyatlariga asos bo‘lishi mumkin. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslariga murojaat qilingan. Qolaversa, o‘yin va sahnalashtirish faoliyatining bolalar nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatiga urg‘u berilgan.

Tayanch so‘zlar: moloqot, nutq, nutqning rivojlanish bosqichlari, o‘yin, sahnalashtirish faoliyati.

Речь является одним из важнейших средств общения в жизни человека. В данной статье рассматриваются теоретические основы развития речи у дошкольников. Акцент был также сделан на важности игры и действия в развитии детской речи.

Ключевые слова: общение, речь, этапы развития речи, игра, актерское мастерство.

Speech is one of the most important means of communication in human life. This article addresses the theoretical foundations of speech development in preschool children. Emphasis was also placed on the importance of play and acting in the development of children’s speech.

Key words: communication, speech, stages of speech development, play, staging activities.

Jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun odamga eng avvalo boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati kerak. Muloqot paytida imo-ishoralar, yuz ifodalari ma’lumotlarning bir qismini suhbatdoshga uzatish vazifasini bajaradi. Ammo til, nutq asosiy o‘rin egallaydi. Nutq odamlar uchun tug‘ma qobiliyat bo‘lishi mumkin, ammo uni rivojlantirishni bola mustaqil ravishda o‘zlashtirishi kerak. Bu jarayon kundalik turmush bilan bog‘liq va bunda kattalar ham alohida o‘ringa ega. Ko‘p yillar davomida shakllanib, doimiy ravishda o‘zgarib turadigan nutq inson hayotining eng muhim qismlaridan biridir. Kichkina bola oldida katta, muhim vazifa turibdi - o‘z fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifoda etish san‘atini egallash, ona tilining barcha boyliklari va xilma-xilligini o‘zlashtirish.

Nutqdan foydalanish masalasi, uning rivojlanishi bolalikning dastlabki



davrlariga to'g'ri keladi. Ya'ni, birinchi yildan to 5-6 yilgacha jamiyatda quriladigan bola hayotining poydevori qo'yiladi. Nutqning rivojlanishi - bu nafaqat bolaning intellektual rivojlanishi, balki uning kommunikativ qobiliyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan noyob hodisa. Bu davrda esa jazzi inson har doimgidan ko'ra ko'proq qarindoshlarining yordamiga muhtoj bo'ladi. Kattalar bunday vaziyatda bola nutqining rivojlanishini to'g'ri yo'naltiradigan va nutq uchun boy, rang-barang til materialini tayyorlab beruvchi, nutq bilan qanday shug'ullanishni o'rgatadigan shaxs bo'ladi.

Kichkina bolada uyg'un nutqni rivojlantirish uzoq va murakkab jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bola uchun ushbu vazifa juda muhim. Nutq yordamida bola atrofdagi dunyoni o'rganadi, muloqot qobiliyatini rivojlantiradi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu jarayon va uning qonuniyatlari hatto alohida tilshunoslik - ontolingvistika tomonidan o'rganiladi.

Bolaning atrofidan eshitganlari bu uning birinchi tajribasidir. kattalar nutqini tinglash va eslab qolish bola nutqining rivojlanish asosidir. Bola psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri taqlid xatti-harakatlaridir. Psixologlar va sotsiologlarning ta'kidlashicha, hayotining dastlabki bir necha yilini ijtimoiy izolyatsiyada o'tkazgan bolalar oxir-oqibat na tilga, na jamiyat hayotiga moslasha oladilar (ertak qahramoni Mougli taqdirini esga olaylik). Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, nutqni rivojlantirishning erta davri bolaning umumiy rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi va ota-onalar tomonidan bu jarayonga jiddiy e'tibor berilishi kerak. Nutqni o'rganish maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy aqliy rivojlanishidagi asosiy ko'rsatkichdir.

Bolalar nutqini o'stirishning nazariy asoslariga diqqat qaratar ekanmiz, bu borada o'yin va sahnalashtirish faoliyatining o'rni alohida ekanligini ko'ramiz. Biz mazkur maqolada ana shu ikki omil – o'yin va sahnalashtirish faoliyatining bola hayoti, bola nutqidagi ahamiyati haqida so'z yuritmoqchimiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy, foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, agarda biz bolalarning o'yin faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi temperamenti) yaqqol namoyon



bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tassavur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti –harakatlarini aks ettiradilar.

O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarli. O'yinning qiziqarliligi uni anglab yetishning osonligidir. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo yetarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, o'quvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola o'yin faoliyati orqali erishadi. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelgan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir.

O'yin mashg'ulotlaridan voqea band – ijroli, ya'ni sujetli-rolli o'yinlar orqali bolalar tafakkurik engayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Sahnalashtirish faoliyatining bir bo'g'ini bo'lgan rolli o'yinlar orqali bolalarga ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o'z aro munosabatlari, turmush kechirish yo'sinlari bilan tanishib boradi. Bolalar ham isha kattalarga taqlidkilishadi, qo'g'irchog'ini erkalayotgan qizcha onasining so'zini takrorlaydi, qo'g'irchog'ini beshikka bela balla kuylaydi, manashu birgina o'yin orqali unda oila sharoitidagi ko'nikmalar hosil bo'layotganligini kuzatishi mizmumkin. Bundan tashqari «Shifokor», «Sartaroshxona», «Do'konda», «quruvchilar», «Tikuvchilar», «Bog'cha», «Maktab - maktab» kabi o'yinlar orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o'zgalarga mehnatiga hurmat, ahilvainoqlilik, shirin suxanlik kabi xislatlar o'stirib boriladi. Bolalarning nutqini o'stirishda, lug'atini boyitish v aduny oqarashini kengaytirishda sujetli-rolli o'yinlarning o'rni alohidadir. Bunday o'yinlar orqali bolada talaffuz



madaniyati, nutq rivojlanadi. Zero, bolalarda tovush madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ham MTT tarbiyachilari oldida turgan asosiy vazifadir. Biz yuqoridagi fikrlardan, izlanishlardan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

– Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi uchun ham, amaliyoti uchun ham dolzarb va ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

– O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida bolalarda nutq paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi kishilar bilan muloqoti jarayonida ro'y beradi, degan tezisni aks ettiruvchi qarashlar tizimi shakllandi. Bunda bola kattalar nutqiy namunalari passiv ravishda qabul qilmaydi, balki umuminsoniy tajribaning bir qismi sifatida nutqni faol o'zlashtiradi. Bola nutqni o'stirish va rivojlantirish – bu eng avvalo, egallash uchun til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantirishdir.

Nutqni egallashda eng muhim bosqich maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Chunki, verbal davrgacha bo'lgan (tayyorlov) bosqichda nutqning muhim omillari yaratiladi. Bola o'z hayotining birinchi yili davomida atrofdagi kattalar bilan muloqot qilishning ikki shaklini o'zgartiradi.

Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar - bolalarning tilga oid o'yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlarni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur.

O'yinlar, xususan sujetli-rolli o'yinlar, umuman sahnalashtirish faoliyati bolalar nutqini o'stirishda asosiy vositalardan biri bo'lib hisoblanadi. Bolaga intonatsiyadan to'g'ri foydalanishni o'rgatishda, bolalarda tovushning tashqi tomonini rivojlantirishda bu jarayondan foydalanish samaraliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sario'g'och, 1998.

1. F.R.Qodirova. R.M.Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.

1. www.ziynet.uz. G.Yo'ldosheva. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Maruzalar matni. Qarshi, 2008.